XALQ DEPUTATLARI PISKENT TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 29 - fevral VI-74-32-10-142-K/24 Piskent tumani hokimligi

Piskent tumani mahalliy budjetining 2024-yil yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini ajratish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga asosan tuman mahalliy budjetida 2024-yilning yil boshiga shakllangan erkin mablag‘idan foydalanish yuzasidan Xalq deputatlari Piskent tumani Kengashi, **qaror qiladi:**

1. Tuman mahalliy budjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

2. Piskent tuman mahalliy budjetining 2024-yilning yil boshiga shakllangan erkin mablag‘idan hisobidan mablag‘ ajratish ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

3. Mablag‘ ajratilgan tashkilotlar Piskent tumani mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning sarflanishi tuman kengash raissining tastig'iga asosan xarajat amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi A.Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Yakubov N.G.**

Xalq deputatlari Piskent tuman
Kengashining
2024-yil 29-fevraldagi
VI-74-32-10-142-K/24-son qaroriga
1-ilova

Piskent tuman mahalliy budjetining 2024-yil Yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan mablag‘ ajratish

yo‘nalishlari

Mln.so‘m hisobida

T/r	**Ko‘rsatkichlar**	**Yo‘naltiriladigan**	
		eng kam qismi	**eng ko‘p qismi**
I			
	shundan		
1.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13 apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtrokini ta'minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”gi PQ-409-son Qaroriga asosan	30%	1 209,9